

IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA O‘ZBEK AYOLI OBRAZI

Abdumo‘minova Dildora Oybek qizi

Termiz davlat universiteti O‘zbek tili va
adabiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek yozuvchisi va shoiri Iqbol Mirzo qalamiga mansub, 2016-yilda yozilgan “Bonu” romanini qisman tahlil etilgan. Asosiy e’tibor undagi ayol obraziga qaratilgan va bugungi o‘zbek ayollari bilan asar qahramonlari solishtirilgan. Asar qahramonining boshidan kechirgan kunlari, voqealar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qanotsiz farishta, o‘zbek ayoli, sabr, qiyinchilik, kechirimli, iffat, yolg‘on, yor.

Inson zoti bu dunyoga kelar ekan, Alloh taolo unga onani qanotsiz farishta timsolida yuboradi. Ayol bizning dinimizda azal-azaldan hurmat-e’tibor qozonib kelgan va adabiyotda ham yetarlicha o‘rin egallagan. Qadimgi va hozirgi o‘zbek adabiyotida ayol obrazi yuksak mahorat ila tasvirlangan. Masalan, Iqbol Mirzoning “Bonu” romanini oladigan bo‘lsak, asarda bir ojiza tasviri manaman degan alp yigitdanda mag‘rur, or-nomusni birinchi o‘ringa qo‘yadigan holda ifodalangan. Asarda bosh qahramon Bonu ismli qiz bo‘lib asar davomida uning hayoti, boshidan kechirgan qiyinchiliklari, zavqli onlari adib tomonidan o‘zgacha mahorat bilan jonlantirilgan. Romanning yozilish uslubi umuman boshqacha, asar Bonu tilidan yozilgan. Bosh qahramon shu darajada vijdonli edi-ki, ana o‘sha vijdoni sabab ishidan ayrıldi. Bilasizmi, Bonuning hayoti juda oz fursatda qiyinchiliklarga qo‘shilib ketadi. Avvaliga u Yusuf ismli bir nomardni deb nomi yomonga chiqadi, otasi vafot etadi va eng alamlisi uning ishongani Olmos uni yarim yo‘lda, dardga chalingan holida tashlab ketadi.

Ishonasizmi, yozuvchi Bonuning naqadar oqila va haqiqiy o‘zbek ayoli ekanligini Olmos unga soxta uzuk olib kelganda yomon gumonga bormay, balki sotuvchi aldagandir deya, yigit uyalmasligi uchun o‘zi haqiqiysini olgan jarayonda tasvirlagan edi. Bonu juda ko‘plab qiyinchilikni faqatgina o‘zbek ayollariga xos sabr bilan yengdi. To‘g‘ri Olmosdan ayrilgach, xuddi bu dunyoda hamma suyangan, ishongan insonlarini yo‘qotgandek his qildi o‘zini, yashashdan ma’no qolmaganday dunyo ko‘ziga qorong‘u ko‘rindi, biroq uning onasi tirikligini, dardga chalingach shifo topishi uchun jon-jahdi bilan kurashgan inson faqatgina onasi ekanligini, dunyoda onasi uchungina kerakligini tushunib yetdi. Iqbol Mirzo Bonuning onasi obrazida ham o‘zbek ayolining farzandi uchun naqadar yonib kuyishini, hech kim qabul qilmasada ona farzandi sog‘mi, nobopmi qabul qilishini tasvirlagan. O‘zbek ayoli, ayniqsa, onalar farzandi uchun hech narsasini ayamasligi Bonuning onasi u Rossiyadan yuborgan pullarni farzandlari so‘raganda, qiynalishganida chiqarib berishi orqali tasvirlagan. Bu holat ba’zan o‘quvchi ko‘zida yoshni qalqitadi. Asarda yozuvchi tomonidan o‘zbek ayolini boshqa millat ayolidan ajralib turishi ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan, ya’ni Bonu Alisher topib bergen uyda (lo‘lilarning uyida) oddiy xizmatkor bo‘lib yurgan kezlari, jajji qizaloqlarni kuchukdan himoya qilish maqsadida o‘z jonini xavfga qo‘yadi. Voqeа vaqtida boshqa millat vakili bo‘lgan tarbiyachi ayol ham bo‘ladi, afsuski undan bu kabi jasorat chiqmaydi. Bu holat o‘zbek ayollarini naqadar mehribon ekanliklaridan dalolat bersa ajabmas. Bonu ushbu holatdan so‘ng asta-sekinlik bilan oilaning suyukli a’zosiga aylanadi. Bilasizmi, o‘zbek ayollarida shunaqangi kechirimliki, kimdir uning dilini og‘ritsa, to‘g‘ri, nafratlanadi biroq uning qiyin kunida tashlab qo‘ymaydi. Bu xarakter, deyarli barcha o‘zbekning iffatli ayollarida bor va asarda yozuvchi bu holatni e’tibordan chetda qoldirmagan. Ishonasizmi, Olmos Bonuni kasal holida tashlab ketdi, bemalol sevgisidan kechib o‘zgasini yor deya qabul eta oldi, biroq, Bonu uning og‘ir dardga chalingan degan yolg‘onlarga ishondi. Xo‘sh nega ishondi? Sababi u bir Allohdan qo‘rquvchi, oqila, rostgo‘y edi va o‘zgalarni xuddi o‘zidek qabul qilgan edi. Olmosdan gina saqlamadi, aksincha, tuzalishi uchun pul yubordi. Olmos aslida Bonuni hech qachon sevmagan, aksincha, uning soddaligidan,

oz bo‘lsada uning chiroyiga uchgani va boy oilaning qizi deb o‘ylaganidan o‘zini go‘yo Bonuni sevadigandek qilib ko‘rsatgan. Aslida, Yormuhmmad ham, Sulton-u Abdusattor ham, Qamariddin ham, “olim”, “fermer”, “tabib”, “advokat”, “bemor” ham mana shu Olmosning o‘zi edi. Uning soxta “tabib”ligi ortida Bonu va u kabi ko‘plab bemorlarning azob chekishi, terisi yara bo‘lib, kunning jaziramasida haddan ortiq qiynalganlari, Bonuning sevgisidan foydalanib, o‘zini “bemor” qilib ko‘rsatib, uning pullarini rosa shilganlarini, bular ham mayli, Ikromiddinni qamoqdan chiqarib beraman deb, soxta advokatlik qilib, bechora norasida bolalarning pullarini ham shilganligi kitobxonni albatta ta’sirlantiradi. Asarda Bonu uchun or-nomus birinchi o‘rinda turishini ikki holatda kuzatish mumkin. Birinchisi, Yusuf unga tashlanganda, u o‘zini himoya qilib ertalabgacha mashina eshigini ochmasligi bo‘lsa, ikkinchi holat Dilbarning tuzog‘iga tushib qolgan mahal, tan jarohati yetkazib bo‘lsada o‘z nomusini asraganidir. Roman haqiqatdan ham o‘quvchini o‘ziga jalb etadigan, hajmi katta bo‘lsada, tez fursatda o‘qiydigan darajada qiziqarli va sevimli kitobxonlariga egadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bu hayotda Bonu qilgan mardliklarni, qiyinchiliklarga sabr ila dosh bera olishga har kim qodir emasdir. Iqbol Mirzo yaratgan Bonu obrazi o‘quvchilarga ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Iqbol Mirzo – “Bonu” romani. Toshkent-2016 y.*
2. *@mutolaa_sehri*